

OBRAZNING BADIYYLIGI VA LIBOSLARNING BIR-BIRINI TO‘LDIRISHI, TO‘PLAM YARATISH JARAYONIDA TALABADAGI IJODIY MUKAMMALLIKNI SHAKLLANTIRISHI

Rashidov Asomiddin Zayniddinovich

Milliy rassomlik va dizayn instituti

Libos dizayni kafedrası dotsenti

E-mail: a.rashidov3107@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada, yangi to‘plamni loyihalash jarayonida obrazli-assotsiativ fikrlashni rivojlantirishi, yangi ko‘nikmalar asosida loyihaga qo‘yiladigan talablarni tahlil qilish va aniqlanish, ko‘nikmalarni shakllantirishi; yangi to‘plam yaratishda to‘g‘ri qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllanishi muhimligi; kiyimning obraz va konstruktiv tuzilishini mukammal bilish; badiiy va grafik vositalar yordamida liboslar to‘plamini yaratishda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish; ijodiy kolleksiyalarini yaratishda loyihalash usullarini o‘zlashtirish muhimligi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: to‘plam, obraz, liboslar to‘plami, o‘qitish samaradorligi, yangi ko‘nikma, rivojlantirish.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается развитие образно-ассоциативного мышления в процессе проектирования новой коллекции, формирование умений анализировать и определять требования к проекту на основе новых навыков; важность формирования знаний и умений, необходимых для принятия правильных решений при создании новой коллекции; безупречное знание образа и конструктивной структуры одежды; приобретение практических навыков создания коллекции одежды художественно-графическими средствами; важность освоения методов проектирования при создании творческих коллекций.

Ключевые слова: коллекция, образ, коллекция одежды, эффективность обучения, новые навыки, развитие.

ABSTRACT

The article examines the development of figurative-associative thinking in the process of designing a new collection, the formation of skills to analyze and determine project requirements based on new skills; the importance of developing the knowledge and skills necessary to make the right decisions when creating a new collection; impeccable knowledge of the image and constructive structure of clothing;

acquisition of practical skills in creating a clothing collection using artistic and graphic means; the importance of mastering design techniques when creating creative collections.

Keywords: *Innovative education, interactive methods, didactics, learning effectiveness.*

KIRISH

Yangi to'plamni loyihalash jarayonida obrazli-assotsiativ fikrlashni rivojlantirish, yangi ko'nikmalar asosida loyihaga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish va aniqlash, ko'nikmalarini shakllantirish; yangi to'plam yaratishda to'g'ri qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish; kiyimning obraz va konstruktiv tuzilishini mukammal bilish; badiiy va grafik vositalar yordamida liboslar to'plamini yaratishda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish; ijodiy kolleksiyalarini yaratishda loyihalash usullarini o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Moda dizaynida badiiy obraz libosning shakli, rang palitrasi va naqshlari orqali kayfiyat yoki mavzuni ifodalaydi. Zamonaviy kostyum dizaynining ijodiy jarayonida u hal qiluvchi ahamiyatga ega. Badiiy obraz, odatda, yakka obyekt tasosida rivojlansada, u inson muhitini shakllantiruvchi kuchli vosita sifatida qaraladi.

Badiiy obraz insonning asabiy faoliyatining badiiy turi asosida shakllanadi. U axborotni individual tarzda qabul qilish va qayta ishlash natijasida yuzaga keladi. Bu jarayon shaxsiy sezuvchanlik, boy tasavvur, obrazli fikrlash va emotsional xotirani o'z ichiga oladi. Tashqi dunyoni aks ettirish jarayoni ikki asosiy obraz turini yuzaga keltiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Badiiy obraz tushunchasi dizaynda estetik, vizual va konseptual ifodaning muhim elementi sifatida qaraladi. Oddiy qilib aytganda, bu dizaynning g'oyasi, kayfiyati yoki mavzuni vizual shaklda ifodalash vositasidir. Dizayndagi badiiy obraz quyidagi asosiy xususiyatlarga ega. Vizual ifoda rang, shakl, chiziq va tekstura orqali ko'rinadi. Simvolik ma'no g'oya, tushuncha yoki hissiyotlarni bildiradi. Estetik ko'rinish tomoshabinda go'zallik va muvozanat hissini uyg'otadi. Fikriy mazmun dizaynning g'oya va konsepsiyasini ochib beradi.

Kostyumning badiiy obrazida aniq predmet va mavhum g'oyaning uyg'unligi mavjud bo'lib, kompozitsion yechim, material tanlovi, shakl va rang vositalari bu g'oyani ifodalashga xizmat qiladi. Moda dizayneri dunyoni subyektiv idrok qilgan holda o'z tasavvurini obrazlarda namoyon etadi. Shaxsiy ramzlar va assotsiatsiyalar asosida turli xil vositalar yordamida badiiy obrazlar yaratiladi. Bu

obrazlar, ayniqsa, kostyum dizaynida shakl, rang, tekstura va konstruksion yechimlarning sintezi orqali ro'yobga chiqadi. XX asr oxiridan boshlab moda dizaynerlari o'z kolleksiyalarida xilma-xil, hatto qarama-qarshi obrazlarni uyg'unlashtira boshladi. Bu yangilik, grotesk va ekspressivlikni asosiy mezon sifatida ilgari surdi. Har bir moda ko'rgazmasi o'ziga xos sahnalashtirilgan "tasvirlar teatriga" aylandi. Badiiy obraz kiyim, bosh kiyim, poyabzal, aksessuarlar, bo'yanish, soch turmagi, sahna muhit va musiqiy fon orqali ifodalanadi. Bu omillar dizaynning obraz haqidagi tasavvurini yaxlit shaklda aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy obraz bu dizaynning ijodiy va professional qarashlarini ifodalovchi konseptual vositadir. Kostyum dizayni jarayonida bu obraz muayyan ma'noga ega bo'lib, tasviriy materiallar orqali gavdalanadi. Ijodkor g'oyani ifodalashda konsepsiyadan tortib sahnalashtirishgacha bo'lgan barcha vositalardan foydalanadi va yakuniy natijada tomoshabinga ta'sirchan, estetik jihatdan boy obraz taqdim etadi.

REFERENCES

1. Ra'no, K. (2025). LIBOS DIZAYNI TA'LIMIDA ASRLAR DAVOMIDA RIVOJLANIB, O'ZGARIB, YANGILANIB KELGAN MODANING O'RNINI VA RIVOJLANISH OMILLARI TALQINI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 80(1), 337-343.
2. Ernazarovna, U. G. (2022). The Formation of the design term and history of development. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 96-102.
3. Gayratdjonovna, X. D., & Sh, Y. S. (2025). ZAMONAVIY MODA VA REDIZAYN: "BARQAROR MODA" NING USTUVOR TAMOYILI SIFATIDA. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 80(1), 320-328.
4. Tursunpo'latova, D. R. Q. (2021). KIYIMDAGI "NEW LOOK" USLUBI, KELIB CHIQISH TARIXI VA ZAMONAVIY MODA YO'NALISHIDA AKS ETISHI TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 752-762.
5. Yunusxodjaeva, S. A. (2019). Yosh rassomni o'qitishda samarali usullardan foydalanish. *PEREKRYOSTOK KULTURASI*, 1(4).
6. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, PEDAGOGIK KOMPETENTLIK: NAZARIYA VA AMALIYOT, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, Gulmira Rifovna Tojiboeva
7. Zaripova, M. A. (2020). MODEL YARATISHNING ISHLAB CHIQRISH MUNOSABATLARIDA ISHTIROKI. *PEREKRYOSTOK KULTURASI*, 2(4).

8. Komilova X. X., Vohidova U. A. “Loyihalash”, OO’Yu uchun o’quv qo’llanma. - Toshkent : Fan va texnologiya.
9. http://vtk34.narod.ru/petruk_osnovimodelirodejdi/book/book12.htm
10. https://studref.com/638080/kulturologiya/ispolzovanie_tsveta_kollekti
11. Umarova, G., & Rashidov, A. (2024). IJODIY FAOLIYAT UCHUN, O ‘QUV MASHG ‘ULOTLARINING O ‘ZIGA XOS USLUBIY CHIZMASIGA EGALIGI, IJODKORLARNING EKSPERIMENTAL ISHIGA KATALIZATOR BO ‘LIB XIZMAT QILISHI OMILLARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (2), 147-147.
12. Usmanova, N. (2022). MODA SANOATIDA “ZERO WASTE” NING O ‘RNI VA UNING O ‘ZIGA XOS KONSEPSIYASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 1121-1129.
13. Гайсина, Р.Ш.. «ZERO WASTE» КАК НАПРАВЛЕНИЕ БЕЗОТХОДНОГО ПРОИЗВОДСТВА ПРИ ПРОЕКТИРОВАНИИ ОДЕЖДЫ. 145-150.
14. Nishanova, S. D. (2022). ZAMONAVIY PODIUMGA 80-YILLAR MODASINING QAYTIB KELISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 189-195.